



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 442 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkxonova Zarafuz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugiyoy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning.....	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmurovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Ta'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili.....	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students.....	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir kizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli.....	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umardulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
Azamatova Dildora Shuxrat qizi	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
Babayeva Dilnoz Xaydarovna	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
Egamova Munisa Khakim kizi	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
Kodirov Akbar Shuxratovich	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oprovna	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	226
Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
Omondavlatova Diyora Otabekovna	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxiid qizi	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
Qurbonova G. M.	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
Norqobilova Rayxona Davlatovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
Shaymatova Aziza	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
Suyarova Orzigul Sodiq qizi	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
<i>To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna</i>	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
<i>Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna</i>	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
<i>Umarov Bahrom Norboyevich</i>	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
<i>Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
<i>Yaqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi</i>	
O'smir shaxsida refleksiyaning shakllanishida ota-onaning munosabatlarining ta'siri	292
<i>Yulchiboyeva Dilfuza Ergashevna</i>	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
<i>Zokirova Sohila Muxtoraliyevna, Nurmuhammedova Dilshoda Zaynobiddin qizi</i>	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
<i>Журабекова Хабиба Мадаминовна</i>	
Ortodontiyada mioterapiya: miogimnastik dentoalveolyar apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
<i>Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna</i>	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
<i>Умрихина Виктория Игоревна</i>	
21st Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
<i>Khojimurodov Burkhon Ravshanovich</i>	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
<i>Шарипова Шахноза Шавкат кизи</i>	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
<i>Эшонкулов Хамрокул Маматкулович</i>	
Yosh sportchilarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional mashqlarning ahamiyati.....	326
<i>Aminov Botir Umidovich</i>	
Nutqiy faoliyatda fikr va til tizimlari.....	330
<i>Axmedova Muyassar Xadimatovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish psixologiyasi.....	333
<i>Axmedova Muyassar Xadimatovna, Halimova Gulasal Xamroqulovna</i>	
10–12 yoshli tennischilarda texnik tayyorgarlik samaradorligini oshirish uslubiyati	336
<i>Axmedova Nafisa Isaxodjayevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalarining ilmiy tadqiqi.....	340
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Musobaqa oldi bosqichida tennischilarning maxsus jismoniy sifatlarini kompleks mashqlar yordamida rivojlantirish uslubiyati.....	345
<i>Azamatom Abdullo Isaxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuv	349
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Po'latova Mahfuza To'liqin qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida mustaqillik sifatini rivojlantirishga oid yondashuvlar	354
<i>D. A. Saliyeva</i>	
Milliy adabiyot namunalari yordamida talabalar tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	358
<i>Eraliyeva Dilnoza Oybek qizi</i>	

Oliy ta'lim tizimida tyutorlik institutini rivojlantirishning dolzarb masalalari	362
<i>Kandaxarov Zafar Ishratovich, Tajibayeva Komila Taxirjonovna</i>	
Integrating Communicative and Task-Based Approaches in English Language Teaching Within a Learner-Centered Framework	366
<i>Madinabonu Farkhodova</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish usullarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	370
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	373
<i>Mamatova Dilnoza Bekpo'latovna</i>	
7-sinf biologiya kursini o'qitishda o'quvchilarning metodologik savodxonligini shakllantirish	377
<i>Mirzayeva Nigoraxon Ibrohimjon qizi, Azimov Bekjon Ibrohimjon o'g'li</i>	
10–12 yoshli belbog'li kurashchilarini o'quv-mashg'ulot jarayonida koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish	380
<i>Mirzoqulov Sh. A.</i>	
Pedagog xodimlarning malaka-mahoratini oshirish – samaradorlik omili	384
<i>Musurmonova Mariya Burxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tizimli yondashuv asosida boshqarishning pedagogik mexanizmlari	387
<i>Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi</i>	
Zamonaviy o'zbek tilida so'z tartibi va sintaksis xususiyatlari	392
<i>Narimova Gulnora Abdumannonova</i>	
Ilmiy va innovatsion boshqaruv yondashuvlari orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalari	396
<i>Norbo'tayev Baxtiyor Abduraximovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida algebraik fikrlashni rivojlantirishda mental arifmetikaning o'rni va roli	400
<i>Nurillayev Samad Safarovich, Qodirova Nilufar</i>	
Bolalarning sportga oid ta'lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish omillari va yo'nalishlari	405
<i>Ochilov Jonibek Abdo'xomid o'g'li, Rishad Badayev</i>	
Raqamli ta'lim jarayonida pedagoglarning AKT va media savodxonligini oshirish bo'yicha samarali metodik yondashuvlar	408
<i>Rashidov Sherzod Abdirayimovich</i>	
Didaktik o'yinlar yordamida o'quvchilarning ona tiliga doir bilimlarini mustahkamlash	413
<i>Raxmataliyev Sherzod</i>	
Bosh harflar ramzga aylanganda: monogrammaning zamonaviy grafik dizayndagi ahamiyati	416
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish usullari	420
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Tursunova Saida Soliyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida noverbal muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodlari	423
<i>Xolmo'minova Bahora Abdujalolovna</i>	
Frustratsiya holatining psixologik mohiyati va uni yengish mexanizmlari	426
<i>Y. E. Sobirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklarni hikoya qilishda motiv va syujetning tarbiyaviy ahamiyati ("Pahlovon Rustam" ertagi misolida)	430
<i>Zulayxo Nazarova, Farangiz Mardiyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy vebsaytlari sifatini oshirishda sun'iy intellektdan neft va gaz sohasida foydalanish muammolari	433
<i>Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi</i>	
Развивать личностные качества учащихся на уроках географии	437
<i>Шадиева Нигора Шариповна, Нуруллоева Нилуфар Рузимбоевна</i>	



BOLALARNING SPORTGA OID TA'LIM- TARBIYA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA YO'NALISHLARI

Ochilov Jonibek Abdo'xomid o'g'li
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Rishad Badayev
Zarmed universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sport murabbiyligi sohasida ishtirokchilarning motivlari va murabbiylik muhiti ularning faol ishtirokini belgilovchi muhim omillar ekanligi asoslab beriladi. Bolalarning sportdagi ishtirokiga oid motivatsion omillarni tahlil qilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sportda qatnashish qaroriga beshta asosiy omil ta'sir ko'rsatadi: o'zini malakali deb his qilish, qiziqish va zavq olish, ota-onalarning ishtiroki, yangi ko'nikmalarni o'rganish hamda do'stlar va tengdoshlar bilan bo'lgan aloqalar.

Kalit so'zlar: sport, murabbiy, ko'nikma, omillar, intensivlik, ota-ona, kognitiv, psixologiya.

Abstract: This article substantiates that participants' motivations and the coaching environment in the field of sports coaching are important factors determining their active participation. Studies analyzing motivational factors related to children's participation in sports have shown that five main factors influence the decision to engage in sports: feeling competent, interest and enjoyment, parental involvement, learning new skills, and interaction with friends and peers.

Key words: sport, coach, skill, factors, intensity, parents, cognitive, psychology.

Аннотация: В данной статье обосновывается, что в сфере спортивного тренерства мотивы участников и тренерская среда являются важными факторами, определяющими их активное участие. Исследования, анализирующие мотивационные факторы участия детей в спорте, показали, что на решение заниматься спортом влияют пять основных факторов: ощущение собственной компетентности, интерес и получение удовольствия, участие родителей, освоение новых навыков, а также взаимодействие с друзьями и сверстниками.

Ключевые слова: спорт, тренер, навык, факторы, интенсивность, родители, когнитивный, психология.

KIRISH

Sport ko'plab darajalarda ishtirokchilar uchun juda foydali ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga shubha yo'q. Biroq sportdan olinadigan foyda shaxsning o'zi, uning atrofidagi odamlar, faoliyat kechadigan kontekst, shuningdek, sportning davomiyligi, intensivligi va chastotasiga bevosita bog'liq, degan fikrdamiz. Bu oddiy eshitilsa-da, sport har bir kishiga hamma narsani bera oladi degan tasavvurni tanqidiy ko'z bilan baholash muhim deb hisoblaymiz. Aks holda, barcha sport tajribalariga bir xil yondashish ishtirokchilar, manfaatdor tomonlar, sport rahbarlari va murabbiylar orasida noto'g'ri tushunchalar shakllanishiga olib kelishi mumkin, natijada sport tajribasiga nisbatan faqat yuzaki e'tibor qaratiladi.

Bolalarning sportda ishtirok etishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganuvchi tadqiqotlar soni hali ham yetarli emas. Ushbu tadqiqotda portugaliyalik bolalar va o'smirlarning sportdagi ishtirokiga demografik omillar (yosh, jins va ijtimoiy-iqtisodiy holat), shuningdek, ijtimoiy-madaniy omillar (oiladagi va tengdoshlarning, jismoniy tarbiya o'qituvchisining ta'siri) qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. Tadqiqot doirasida 10-18 yoshdagi 3352 nafar bolalar va o'smirlar, ularning ota-onalari hamda aka-ukalari orasidan tasodifiy tanlab olingan respondentlar so'rovnomaga orqali baholangan. Umumiy natijalar shuni ko'rsatdiki, yosh omili bolalar va o'smirlarning sportda ishtiroki bilan bog'liq emas. Ijtimoiy-iqtisodiy holati yuqori va o'rtacha bo'lgan bolalar sportda faolroq ishtirok etgan. Oila a'zolari sport bilan shug'ullangan hollarda bolalar ham sportga ko'proq jalb qilingan. O'g'il bolalar qizlarga qaraganda sportda ko'proq qatnashgan, biroq onaning sportdagi ishtiroki qizlar va o'g'illar uchun turlicha ta'sir ko'rsatgan: qizlar onalari sportda ishtirok etgan hollarda sport bilan shug'ullanishga ko'proq moyillik bildirgan, o'g'il bolalar uchun esa onaning sportga jalb etilishi yoki etilmasligi sezilarli farq qilmagan.

Tengdoshlarning sportda ishtiroki bolalar faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Boshqa omillar hisobga olinganidan so'ng, jismoniy tarbiya o'qituvchisining ta'siri bolalarning sportdagi ishtirokiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmagan. Xulosa qilib aytganda, bolalarning sportda ishtirokiga demografik va ijtimoiy-madaniy omillar, xususan jins, ijtimoiy-iqtisodiy holat, oila a'zolarining sportdagi faolligi hamda tengdoshlarning ta'siri muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan ^[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Garchi ko'pchilik tashkilotlar va tadqiqotchilar Uaytxed tomonidan berilgan quyidagi ta'rifga tayanishsa-da – “hayot davomida jismoniy faollikka qatnashishni qadrlash va unga mas'uliyat bilan yondashish uchun zarur bo'lgan motivatsiya, ishonch, jismoniy salohiyat, bilim va tushuncha” – har bir mamlakat jismoniy savodxonlikni o'zining madaniy xususiyatlariga mos holda rivojlantirgan ^[2]. Masalan, Kanada bu tushunchani erta qabul qilib, uni jamoalarda keng targ'ib qilgan; AQShdagi Aspen instituti jismoniy savodxonlikni “qobiliyat, ishonch va istak” vositalari bilan bog'lagan; Avstraliya unga ijtimoiy, Yangi Zelandiya esa ruhiy (spiritual) omillarni qo'shgan.

So'nggi tadqiqotlar Xitoy olimlari tomonidan maktab ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bolalar orasida sportda ishtirok etishning akademik samaradorlik, ijtimoiy rivojlanish, kognitiv diqqat, psixologik farovonlik va madaniy omillar bilan qanday bog'liqligini aniqlashga qaratilgan. O'nta universitetdan 413 nafar talabani qamrab olgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, yosh omili ta'limiy yutuqlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, biroq umumiy o'rtacha baho bilan ta'limiy taraqqiyot o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik akademik yutuqlarning ta'limiy yuksalishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, sport va jismoniy faoliyatda qatnashish, sport jamoalari va klublarida ishtirok etish ham bolalarning akademik ko'rsatkichlarini yaxshilagan. Tadqiqot natijalari sportning ijtimoiy rivojlanish va ta'limiy muvaffaqiyatga sezilarli ta'sirini ochib bergan. Ayniqsa, sport orqali shakllangan kognitiv e'tibor hamda psixologik farovonlik ta'limiy muvaffaqiyatga ijobiy hissa qo'shgan aniqlangan. Qolaversa, sport orqali yuzaga kelgan ijtimoiy rivojlanishning ayrim salbiy ta'sirlari kognitiv e'tibor va psixologik farovonlik orqali muvozanatlashtirilgani qayd etilgan. Bu holat o'quvchilarning psixologik holati va diqqatni jamlash darajasi orqali sportning noan'anaviy ta'sirlarini yumshatish imkonini beradi. Tadqiqot shuningdek, madaniy muhitning mazkur omillar bilan o'zaro ta'sirini ham aniqlagan: ijtimoiy rivojlanish bilan akademik muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik madaniy kontekstda kuchaygan bo'lsa-da, madaniy muhit bilan psixologik farovonlik o'rtasida ziddiyatli munosabatlar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqot mualliflari maktab ta'lim muassasalarida ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlovchi, ongli yondashuvni rivojlantiruvchi va sportda ishtirok etishni kengaytirishga xizmat qiluvchi kompleks ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni taklif etadilar. Ushbu yondashuvlar talabalar salomatligi va o'quv sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashga qaratilgan ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onaning jismoniy faollikka bo'lgan munosabati, xususan, otaning mun-tazam mashq qilish odati bolalarning jismoniy faolligi darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, biroq ijtimoiy-iqtisodiy holat bunday ta'sirga ega emas ^[4]. Jismoniy savodxonlik tushunchasida asosiy urg'u motivatsiya va ishonchga beriladi, bu omillar harakatdan zavq olish orqali mustahkamlanadi hamda insonni faol turmush tarziga undaydi ^[5]. Jismoniy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuv o'quvchilarda mustaqillik, avtonomiya va hayotiy faoliyatlar uchun mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishni ko'zlaydi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchini turli maqsadli jismoniy mashg'ulotlarda qatnashishdan zavqlanishga o'rgatish va shu orqali uni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishdan iborat. Bunday pedagogik jarayon samarali bo'lishi uchun o'qituvchi ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi, shaxsiy yondashuvni yo'lga qo'yishi, o'quvchida faol ishtirok etishga bo'lgan ichki motivlarni shakllantirishi hamda uning hayot sifatini oshiruvchi harakat odatlarini rivojlantirishi zarur. Shu asosda shakllangan jismoniy savodxonlik nafaqat jismoniy rivojlanishni, balki o'zini o'zi boshqarish, qaror qabul qilish hamda ruhiy va ijtimoiy farovonlikni ham ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olimlarning ta'kidlashicha, pedagoglar rag'batlantiruvchi va xayrixoh vositachi bo'lib, barcha yoshlarni jalb eta oladigan, ularning qiziqishini uyg'otuvchi, ishonch va faol qatnashishga tayyorligini oshiruvchi vazifalarni taklif etishlari kerak. Bu jarayon qiziqitiruvchi “ilgak” orqali boshlanadi va u orqali o'quvchilarni faoliyatga jalb qilish osonlashadi. O'yin xarakteridagi, shu bilan birga maqsadli va qiziqarli faoliyatlar ularning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jarayonda pedagog faol o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratadi hamda jismoniy faoliyatning maqsadli shakllariga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi ^[6]. Stol tennisining tarixi va rivojlanish bosqichlari bo'yicha bolalarni sportga oid ta'lim-tarbiya madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan dastur mazmunining birinchi omili sifatida asosan stol tennisining tarixi, rivojlanish bosqichlari va uning yildan-yilga keng ommalashib borayotgani bolalarga tushuntirildi. Stol tennisini XIX-asr oxirlarida Angliyada yuqori tabaqa



vakillari tomonidan yomg'irli kunlarda tennisni yopiq joylarda o'ynash uchun ixtiro qilingan bo'lib, ushbu sport turi tarixini o'qitish orqali bolalarda stol tennisiga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsad qilib olindi. Bolalarga stol tennisining tarixi haqidagi zarur ma'lumotlar taqdim etilib, qiziqarli tarixiy faktlar bilan tanishtirildi. Ishlab chiqilgan dastur mazmunida stol tennisiga doir ko'rgazmali materiallar, xususan, tarixiy fotosuratlar va videolavhalar darsdan tashqari mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga yetkazib berildi.

Stol tennisining dastlab qanday raketka va shariklarda o'ynalgani, keyinchalik esa zamonaviy raketkalar qanday o'tilgani tushuntirildi. Shuningdek, stol tennis 1988-yilda Seul shahrida bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlaridan boshlab rasmiy musobaqa sport turi sifatida kiritilgani, bu sport turi dunyo miqyosida tan olingani va ommabop sport turi ekani bolalarga yetkazildi. Stol tennisining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati doirasida ta'lim-tarbiya tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, kelajak avlodga sog'lom muhit qoldirish vazifalari haqida ma'lumotlar berildi. Yurtimiz aholisining aksariyat qismini tashkil etuvchi yoshlar mamlakatimiz kelajagini belgilab berishi, bolalarning ta'lim-tarbiya madaniyatini shakllantirish bilan bir qatorda aqliy faollik va diqqat barqarorligini rivojlantirishda stol tennisidan izchil foydalanish katta samara berishi asoslab berildi.

Jahonga mashhur dunyo va O'zbekiston stol tennischilari haqida ma'lumotlar yig'ilib, bolalarga qiziqarli shaklda taqdim etildi, jumladan, jahon miqyosida Ma Long, Zhang Jike, Jan-Ove Waldner hamda mahalliy mashhur stol tennischilar Zohid Kenchayev, Rimma Ganiyeva, Shohrux Iskandarov va Marhabo Magdiyevalar faoliyati haqida ma'lumotlar berildi. Stol tennisining jismoniy rivojlanishga ta'siri nuqtayi nazaridan ushbu sport turi miya, ko'z, qo'l va oyoq harakatlarining muvofiqligini shakllantirishga, shuningdek tezlik, koordinatsiya, refleks, chidamlilik, epchillik va umumiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishga bo'lgan ijobiy ta'siri haqida ma'lumotlar yig'ilib, darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bolalarga yetkazildi.

XULOSA

Maqolada sport murabbiyligi sohasiga oid turli tadqiqotlar natijalari tahlil qilinib, sportdagi faol ishtirokning asosiy omillari belgilab berilgan. Sportchilarga xos bo'lgan motivatsion omillar hamda murabbiylik muhitining ahamiyati alohida ta'kidlangan. Sportga jalb etish qaroriga bevosita ta'sir qiluvchi besh asosiy omil quyidagilar ekanligi qayd etilgan:

- o'zini malakali his qilish – bu o'z mahoratiga bo'lgan ishonch hissining muhimligini bildiradi;
- qiziqish va zavqlanish – sportning shaxs uchun yoqimli jarayon ekanligiga urg'u beriladi;
- ota-onalarning ishtiroki – ota-onalar tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati yoritiladi;
- yangi ko'nikmalarni egallash – bilim va mahoratni oshirish istagi stress holatini yengishga yordam berishi ta'kidlanadi;
- do'stlar va tengdoshlar bilan muloqot qilish – ijtimoiy aloqalar sport faoliyati uchun muhim omil ekanligi qayd etiladi.

Shu tariqa, ushbu omillar birgalikda sport sohasida faol ishtirok etish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Mazkur faktlarni hisobga olgan holda, murabbiylik amaliyotida bola motivatsiyasini oshirish maqsadida har bir omilni alohida e'tibor bilan inobatga olish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Seabra, A. F., Mendonça, D. M., Thomis, M. A., Peters, T. J., & Maia, J. A. (2008). Associations between sport participation, demographic and socio-cultural factors in Portuguese children and adolescents. *European Journal of Public Health*, 18(1), 25–30.
2. Whitehead, M. (2001). The concept of physical literacy. *European Journal of Physical Education*, 6(2), 127–138.
3. Ma, R. S., Sum, R. K. W., Li, M. H., Huang, Y., & Niu, X. L. (2020). Association between physical literacy and physical activity: A multilevel analysis study among Chinese undergraduates. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 17(21).
4. Shropshire, J., & Carroll, B. (1997). Family variables and children's physical activity: Influence of parental exercise and socio-economic status. *Sport, Education and Society*, 2(1), 95–116.
5. Whitehead, M. (2010). *Physical literacy: Throughout the life course*. Routledge.
6. Almond, L. (2013). Translating physical literacy into practical steps: The role of pedagogy. *Physical Literacy Bulletin*, (65), October 2013.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.